

ISSN: 2181-1040  
DOI: 10.26739/2181-1040  
tadqiqot.uz/renaissance



# JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL  
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 6 | **2025**  
ISSUE 4

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 4

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE  
VOLUME 6, ISSUE 4



## Бош муҳаррир:

### МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, Мирзо Улуғбек номидаги  
Ўзбекистон Миллий университети профессори (Ўзбекистон)

## Бош муҳаррир ўринбосари:

### ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доценти (Ўзбекистон)

## Бош муҳаррир ўринбосари:

### ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доценти (Ўзбекистон)

## МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

### МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,  
профессор (Ўзбекистон)

### ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий  
академияси академиги, санъатшунослик фанлари  
доктори, профессор (Ўзбекистон)

### МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари  
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

### ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

### ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси профессори,  
филология фанлари доктори (Ўзбекистон)

### КЛЭР РООСИЕН

Йел университети, фалсафа доктори (PhD) (АҚШ)

### АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети  
профессори (Испания)

### ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий  
университети профессори, филология фанлари  
доктори, (Ўзбекистон)

### КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,  
тарих фанлари доктори (АҚШ)

### УСМАНОВ ИБРОҲИМ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний  
Номидаги Шарқшунослик институти катта илмий ходими,  
тарих фанлари номзоди, доцент (Ўзбекистон)

### АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,  
PhD (Миср Араб Республикаси)

### МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,  
PhD (Миср Араб Республикаси)

### ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети  
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

### ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети профессори  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

### МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессори,  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

### ҲЕЛАЛ АБДЕЛПРАЗЕК САДЕК АБДЕЛПРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,  
PhD (Миср Араб Республикаси)

### ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
профессор в.б., фалсафа фанлари доктори (Dcs) (Ўзбекистон)

### САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти профессори,  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

### ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,  
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети профессор в.б, социология  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

### AMIROV AZAMAT ODIL O'G'LI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi  
O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha  
Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori o'rinbosari  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

### ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,  
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Х.Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Главный редактор:

### МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

Профессор Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,  
доктор философских наук (Узбекистан)

#### Заместитель главного редактора:

##### ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана имени  
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (DSc)  
по философии (Узбекистан)

#### Заместитель главного редактора:

##### ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

Доцент Национального университета Узбекистана имени  
Мирзо Улугбека доктор философских наук (DSc)  
по философии (Узбекистан)

## ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

##### МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета  
Узбекистана, профессор (Узбекистан)

##### ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академик Академии наук Узбекистана,  
Академии искусств Узбекистана, доктор  
искусствоведения, профессор (Узбекистан)

##### МАРИАННА КАМП РУТЦ

Профессор Центра евроазиатских исследований  
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

##### ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ИСФТ, доктор политических наук (Узбекистан)

##### ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Профессор Международной исламской академии  
Узбекистана, доктор филологических наук (Узбекистан)

##### КЛЕР РОСИЕН

Йельский университет, доктор философии PhD (США)

##### АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Профессор Университета CEU Сан-Пабло (Испания)

##### ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Профессор Национального университета  
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,  
доктор филологических наук (Узбекистан)

##### КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Профессор Университета Хофстра,  
доктор исторических наук (США)

##### УСМАНОВ ИБРОХИМ

Старший научный сотрудник Института востоковедения  
имени Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана,  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

##### АХМЕД МУСА АБДЛАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Международная академия исламских исследований  
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

##### МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД

Международная академия исламских исследований  
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

##### ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Профессор Национального университета Казахстана  
имени Аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

##### ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

Профессор Андижанского государственного  
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

##### МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Профессор Наманганского государственного технического  
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

##### ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК

Международная академия исламских исследований  
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

##### ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛЬБАР ИРГАШЕВНА

И.о. профессора Национального университета  
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,  
доктор философских наук (DSc) (Узбекистан)

##### САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Профессор Навоийского государственного педагогического  
института, доктор философских наук (Узбекистан)

##### ЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национальный университет Узбекистана имени  
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)  
по философским наукам (Узбекистан)

##### МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

И.о. профессора Наманганский государственный университет,  
доктор философских наук (PhD) по социологии (Узбекистан)

##### АМИРОВ АЗАМАТ ОДИЛ УГЛИ

заместитель директора координационно-методического  
центра по вопросам новейшей истории Узбекистана при  
Академии наук Республики Узбекистан, доктор  
философских наук (PhD), доцент

##### ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)  
по философским наукам (Узбекистан)

##### ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национальный университет Узбекистана имени  
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)  
по философии (Узбекистан)

##### РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРАД ОГЛИ

PhD докторант Национального университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Х. Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Chief Editor:

### MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

## Deputy Chief Editor:

### YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named after  
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

## Deputy Chief Editor:

### KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Docent of National University of Uzbekistan named after  
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

## MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

### MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

### KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan, Academician  
of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of  
Art History, Professor (Uzbekistan)

### MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies  
at Indiana University, Doctor of History (USA)

### DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,  
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan)

### ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Professor of International Islamic Academy of Uzbekistan,  
Doctor of Philological Sciences (Uzbekistan)

### CLAIRE ROOSIEN

Yale University, PhD (USA)

### ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU  
named after San Pablo (Spain)

### SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National  
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

### KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,  
Doctor of Historical Sciences (USA)

### USMANOV IBROHIM

Associate Professor of Abu Rayhon Beruniy Institute  
of Oriental Studies, Academy of Sciences of Uzbekistan,  
Candidate of Historical Sciences (Uzbekistan)

### AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN

International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD (Arab Republic of  
Egypt)

### MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD

International Islamic Academy of Uzbekistan,  
PhD (Arab Republic of Egypt)

### GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

### YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Professor of Andijan State University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK

International Islamic Academy of Uzbekistan,  
PhD (Arab Republic of Egypt)

### FAYZIKHODJAYEVA DILBAR IRGASHEVNA

Acting Professor of the National University of  
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

Professor of the Navai State Pedagogical Institute,  
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

### MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Acting Professor of Namangan State University,  
Doctor of Philosophy (PhD) on Sociological Sciences  
(Uzbekistan)

### AMIROV AZAMAT ODIL UGLI

Deputy Director of the Coordination and Methodological Center for  
the Latest History of Uzbekistan under the Academy of Sciences  
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philosophical Sciences, Docent

### ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named  
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),  
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named  
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

### RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Kh.Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Tuychiyeva Nilufar Maxsutjanovna</b> TASAVVUF ILMINI TIZIMLASHTIRISH JARAYONIDA ABU BAKR KALABODIY “TA’ARRUF” ASARINING AHAMIYATI.....	7
<b>2. Odinaeva Zebiniso Ibrokhimovna</b> ANALYSIS OF RESEARCH METHODOLOGIES BASED ON AXIOLOGICAL APPROACHES IN THE CONTEXT OF HUMANITARIAN SECURITY.....	14
<b>3. Хакимова Нигора Алишеровна</b> ПРЕДПИСАНИЯ И МУДРОСТЬ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ ШАРИАТОМ И ИСТИНОЙ.....	23
<b>4. Kazakbayev Akbar Akmaldjanovich</b> ZAMONAVIY ARAB TILIDAGI FRAZEOLOGIK IBORALARNING AYRIM SHAKLLARIGA TAHLILY NAZAR.....	32
<b>5. Fozilov G‘olibjon Nabijonovich</b> XX ASR FALSAFASIDA DAHOLIKKA OID EKZISTENSIAL VA FENOMENOLOGIK TALQINLAR.....	37
<b>6. Ro‘ziboyev Dostonbek Dilmurod o‘g‘li</b> SHARQSHUNOSLIK VA G‘ARBSHUNOSLIK: “BIZ” VA “BOSHQA” DISKURSINING TARIXIY-KOMPARATIV TAHLILI.....	47
<b>7. Shamsiyeva Gulshoda Asliddin qizi</b> THE IMPORTANCE OF THE PARALLEL CORPUS AS A LINGUISTIC BASE.....	55


МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ  
ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

ISSN: 2181-1040  
www.tadqiqot.uz

**Tuychiyeva Nilufar Maxsutjanovna**

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi  
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini  
o‘rganish ICESCO kafedrasi dotsenti  
E-mail: nilufartuychieva79@gmail.com

**TASAVVUF ILMINI TIZIMLASHTIRISH JARAYONIDA ABU BAKR KALABODIY  
“TA’ARRUF” ASARINING AHAMIYATI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18612621>

**ANNOTATSIYA**

Maqolada tasavvuf ilmining tizimlashuvida Abu Bakr Kalabodiy va uning “Ta’arruf li mazhabi ahli tasavvuf” asarining ahamiyati tahlil qilingan. Muallif Kalabodiyning ilmiy faoliyati, uning sunniy aqidaga asoslangan tasavvufiy qarashlari hamda “sahih tasavvuf” atamasini shakllantirishda tutgan o‘rnini yoritib bergan. Maqolada “Ta’arruf” asarining islom ilmlari tizimidagi o‘rni, uning apologetik xususiyati, ilk mutasavviflar bilan bog‘liq fikrlar hamda asarning keyingi asrlar tasavvufshunosligiga ta’siri ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, Kalabodiyning fiqh, kalom va tasavvuf ilmini uyg‘unlashtirishdagi metodologik yondashuvi ham yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Abu Bakr Kalabodiy, “Ta’arruf”, tasavvuf, sunniy aqida, sof tasavvuf, kalom, sufiylar, islom ilmi tarixi.

**Tuychiyeva Nilufar Makhsutjanovna**

International Islamic Academy of Uzbekistan  
Acting Associate Professor of the ICESCO  
Department of Islamic Studies and Islamic Civilization  
E-mail: nilufartuychieva79@gmail.com

**THE SIGNIFICANCE OF ABU BAKR KALABADI’S “TA’ARRUF” IN THE PROCESS OF  
SYSTEMATIZING SUFI THOUGHT**

**ABSTRACT**

The article analyzes the significance of Abu Bakr al-Kalabadhi and his work “al-Ta’arruf li-Madhhab Ahl al-Tasawwuf” in the systematization of Sufism. The author examines al-Kalabadhi’s scholarly activity, his Sufi views based on Sunni creed, and his role in shaping the concept of “authentic Sufism.” The study provides a detailed analysis of the position of al-Ta’arruf within the structure of Islamic sciences, its apologetic nature, discussions of early Sufi thought, and its influence on later studies of Sufism. The paper also highlights al-Kalabadhi’s methodological approach in integrating fiqh, kalam, and Sufism as a unified intellectual framework.

**Keywords:** Abu Bakr al-Kalabadhi, al-Ta’arruf, Sufism, Sunni creed, authentic Sufism, kalam, Sufi scholars, history of Islamic sciences.

Туйчиева Нилуфар Махсуджановна

Международная исламская академия Узбекистана

доцент кафедры исламоведения и изучения

исламской цивилизации ICESCO (и.о.)

Э-почта: nilufartuychieva79@gmail.com

## ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ БАКРА КАЛАБАДИ «ТА'АРРУФ» В ПРОЦЕССЕ СИСТЕМАТИЗАЦИИ СУФИЙСКОГО УЧЕНИЯ

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируется значение Абу Бакра Калабади и его произведения Таарруф ли мазхаби ахли тасаввуф в процессе систематизации суфизма. Автор освещает научную деятельность Калабади, его суфийские взгляды, основанные на суннитском кредо, а также его роль в формировании термина «правильный суфизм». В работе проводится научный анализ места Та'арруф в системе исламских наук, его апологетического характера, связи с идеями ранних суфиев, а также влияния произведения на последующую суфийскую мысль. Кроме того, рассматривается методологический подход Калабади к интеграции фикха, калама и суфийского знания.

**Ключевые слова:** Абу Бакр Калабади, Та'арруф, суфизм, суннитское вероучение, правильный суфизм, калам, суфии, история исламских наук.

**Kirish va mavzuning dolzarbligi.** Islom tarixida Abu Bakr Kalabodiy nomi mumtoz tasavvuf davrining muhim namoyandalaridan biri sifatida zikr etiladi. Uning hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar manbalarda qisqacha keltirilgan bo'lsa-da, uning ilmiy faoliyati va tasavvuf ilmi rivojiga qo'shgan hissasi muhim ahamiyat kasb etgan. Ma'lumotlarga ko'ra, buxorolik Abu Bakr Kalabodiy taxminan 990/994-yillarda vafot etgan. Bu sana uni islom olamida tasavvuf nazariyasi va amaliyoti faol rivojlangan X asrda yashab, ijod etganini ko'rsatadi. Bu davr tasavvufning dastlabki zo'hdlik harakatlardan chiqib, tizimlashgan ko'rinishga o'ta boshlagan davri hisoblanadi.

Sufiylar, o'zgarib borgan vaqt va rivojlanayotgan sharoitlar ichida, ularga qilingan tanqidlarga javob tarzida o'zlarining e'tiqodiy tushunchalari haqida izohlar berishga majbur bo'lganlar. Ular o'zlari turgan o'rnini va mansub bo'lgan e'tiqodiy yo'nalishini asarlar yozish orqali ko'rsatishga harakat qilganlar. Tasavvufning tashkillanish jarayonida yashagan Kalabodiy ham tahlil qilgan mavzular doirasida ilk davr kalomchilari murojaat qilgan masalalarga e'tibor qaratish orqali sufiy qarashlarda ahli sunnat yo'nalishini aniq belgilash va uni ustuvor qilish bilan birga, haqiqiy sufiylik bilan soxta sufiylik o'rtasidagi farqni ham ochib berishni maqsad qilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kalabodiy islom hududlari kengaygan, siyosiy va fikriy tortushuvlar avj olgan bir davrda yashagan. Bu holatlar uning asarlarida ham o'z aksini topgan [13:7]. Bundan tashqari uning Abu Bakr Shibliy (vaf. 334/945), Abu Nasr Sarroj (vaf. 378/988), Abu Tolib Makkiy (vaf. 386/996) kabi mashhur tasavvuf nazariyotchilari bilan zamondosh ekanligi ham e'tiborga molikdir. Bu olimlar bilan zamondosh bo'lish Kalabodiyga tasavvuf ilmining rivojlanish jarayonini kuzatish va bu jarayonlarni qayd etish imkonini berdi.

Hanafiy mazhabiga amal qilgan Kalabodiy ray usulidan keng foydalangan, mantiqning barcha nozik jihatlariga rioya qilgan hanafiy fiqh olimlarining metodlaridan foydalangani sababli nas va aqlga tayangan bir tasavvufiy qarashni ilgari surdi. Bu jihati bilan Kalabodiy sunniy tasavvuf peshqadamlaridan deb qabul qilingan.

Kalabodiy yuqorida sanalgan ilk tasavvuf nazariyotchilaridan va tasavvufni tizimli ravishda o'rgangan olimlardan biri sifatida e'tirof etilgan. U tasavvufni ilmiy asosda rivojlanish bosqichiga olib chiqa olgani bilan shuhrat qozondi. U vaqtda islomning boshqa ilm sohalarini ham tizimlashgan va ilmiy tasnif jarayonini boshdan kechirayotgan edi. Buxoroda yashagan olim ham muhaddis, ham mutakallim, ham mutasavvif sifatida faoliyat olib bordi. Olim "Ta'arruf li mazhabi ahli tasavvuf" nomli asari orqali sufiylarning aqidaviy qarashlari, tasavvuf asoslari va atamalarini taqdim qila oldi [19:90].

О. Akimushkinning fikriga ko‘ra “Ta’arruf” asari keyingi davr mutasavviflari tomonidan yuqori baholangan. Jumladan, Yahyo Suhruvardiy (vaf. 1191 y.) tomonidan: “Agar Ta’arruf bo‘lmagandan biz tasavvufni bilmagan bo‘lar edik” deya ta’riflagan [15:128].

**Tahlil va natijalar.** Tasavvufning ilk nazariy asari hisoblanmish Abu Nasr Sarrojning “Luma” asarida fiqh va tasavvuf munosabatiga ko‘proq ahamiyat qaratilgan bo‘lsa, Kalabodiyning “Ta’arruf li mazhabi ahli tasavvuf” kitobida aqida va tasavvuf aloqadorligi yoritilgan. Kalabodiyning kitobida mavzu yoki isroiliyot hadislar uchramasligining sababi uning muhaddis bo‘lganligi va bu sohani yaxshi bilganligi bilan bog‘liq. Uning tasavvufiy qarashlari mo‘tadil o‘rtalikni topishga qaratilgan.

Odatda tasavvufning ilk nazariy manbalarida e‘tiqodiy masalalar qisqa bir shaklda bitta mavzu ostida bayon qilinishi an‘ana tusini olgan edi. Keyinchalik tasavvufga otilgan ayrim tuhmat toshlari natijasida sufiylarning e‘tiqodi bilan bog‘liq batafsil asarga ehtiyoj sezila boshlandi. Ana shu bo‘shliqqa va tortishuvga chek qo‘yish maqsadida Kalabodiy mazkur asarini yaratdi. Natijada uning aqidaviy qarashlari o‘zidan keyingi sufiylar uchun asos vazifasini o‘tadi.

Ilk mutasavviflardan sanalgan Abdulkarim Qushayriy “Sufiy shayxlarning aqidalari usul va aqoid masalalarida sunniylarning qarashlariga muvofiqdir” deya ta’kidlagan [1:4]. Bu fikrni esa Qushayriyga fikriy ta’sir o‘tkazgan Kalabodiyning “Ta’arruf” asarida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu e‘tiborga molik fikr sufiylarni aqidasi ahli sunnadan ayri ekanini ta’kidlovchilar va dinsizlikda ayblovchilarga qarshi bir muhaddis, faqih va sufiy nazariyotchi tomonidan keltirilgan hujjat sifatida muhim sanaladi. “Ta’arruf”dan avval bironta sufiy adabiyotida aqida mavzusiga bu qadar batafsil ochib berilmagan. Kitobning deyarli yarimi aqida va qisman fiqhiy masalalarga bag‘ishlangani ham bejiz emas. Bu holat muallifning maqsadi tasavvufni islom bilimlari doirasidan ekanini yana bir bor isbotlash va uning aqidasi sofligini ko‘rsatib berishga qaratilganini ko‘rsatadi.

Uning aqidaviy qarashlari xuddi “Fiqhul akbar” va Nasafiy aqidasi ma’lumotlariga o‘xshashdir. Bu orqali Kalabodiy ahli sunna mazhabida ekanini va ularning aqidasini himoya qilishini ochiq namoyish qilgan [18:192-193].

Kalabodiy “sufiylarning e‘tiqodi sunniy kalomga tobedur” jumlasini bilan “sahih tasavvuf” atamasiga asos soldi. Sababi Kalabodiy nazdida ahli sunna aqidasi va fiqhiga muvofiq bo‘lgan tasavvufgina sahildir. U tasavvufni bid‘at xurofotdan ozod bir fan sifatida ko‘radi. Uning “Ta’arruf” asari yozilgandan so‘ng sufiylikdan gapirishga haqli bo‘lmaganlarning tasavvufga nisbatan turli uydirma yoki tuhmat qilmasliklari ta’minlandi.

Xarroz va Termiziyga nazar tashlansa, ularning bevosita kalom masalalariga kirishmaganliklarini aytish mumkin; lekin ular nabiy va valiy munosabati orqali payg‘ambarlarga itoat qilish, mo‘jiza va karomat kabi ba’zi mavzularga asarlarining turli joylarida to‘xtalib o‘tganlar [6: 336-346]. Hujviriya esa o‘zining e‘tiqodiy qarashlarini asarining “kirish”, “ilmning isboti”, “Hakimiyya” va “Hululiyya” kabi bo‘limlarida asta-sekin va odatda tasavvufga xos mavzular bilan chambarchas bog‘liq holda bayon qilgan [2:191-239]. Makkiyga kelganda, “Qutu-l-qulub”ning birinchi jildida “Qalbga keladigan xayollar va g‘ofillarning hollari” sarlavhasi ostida tavhid, iroda va qudrat kabi masalalarga bevosita va bilvosita to‘xtalgan. Uchinchi jildda “Imon va islom” hamda “Imon va islom o‘rtasidagi bog‘liqlik” sarlavhalari ostida masalalarni kalomiy jihatdan tahlil qilgan. To‘rtinchi jildda esa katta gunohlarga alohida bir bo‘lim ajratgan [9: 1/453-505]. Shu sababli, “Qutu-l-qulub” shu paytgacha zikr qilingan asarlar ichida kalomiy masalalar eng keng yoritilgan asardir.

Bu nuqtada Kalabodiyga kelsak, u hajm jihatidan kichik, lekin mazmunan boy tarzda kalom masalalariga o‘rin ajratgan. Shunday qilib, u mutasavviflarning tarqoq holda o‘rin bergan kalomiy masalalarini bir joyga to‘plagan va ular haqida bevosita sufiylarning fikrlarini keltirgan. Bunda u o‘zidan avvalgi sufiylar bilan cheklanmay, o‘z davridagi ko‘plab sufiylar bilan uchrashganini va bu sufiylarning asardagi kalomiy masalalarda katta aksariyat bilan muvofiq ekanliklarini ta’kidlashi ham muhimdir [10:51].

Tasavvuf ahlidan bo‘lgan kishining o‘z asarida kalom masalalariga katta o‘rin ajratishi tahlil qilinishi kerak bo‘lgan masaladir. Bu tahlilda javobni – yuqorida ishora qilganimizdek – mutasavviflarning tasavvufni diniy ilmlar qatoriga kiritishga urinishida topamiz. Biroq tasavvufning diniy ilmlar qatoriga kirishi oson bo‘lmadi. Chunki ulamolalar tomonidan tasavvufga jiddiy ayblovlar

qo'yilgan edi. Zero, ilk davr tasavvuf asarlarining yozilishidagi bir sabab ham bu ayblovlarni bartaraf etish edi. Shu jihatdan ilk davrda yozilgan tasavvufiy asarlar apologetik (himoyaviy) xususiyatga ega bo'lib, ular orasida "Ta'arruf" apologetik yo'nalishi bilan eng ko'zga ko'ringanidir [11:1-29]. Bu yo'nalishda asar yozishga mutasavviflarni ikki holat undagan deb xulosa qilish mumkin:

a) Tasavvuf begona din va tafakkur tizimlari ta'sirida paydo bo'lgan, islom tarkibida kelib chiqishga ega bo'lmagan bir an'anadir. Shu sababli mistik va hululiy harakatlarga o'xshash voqealar yuzaga kelgan degan qarashni inkor qilish maqsadida.

b) Ayrim sufiylarda ochlik, uzlat, bo'ydoqlik va kasbni tark etish kabi sunnatdan tashqari amallar yuzaga kelgan ediki, bular rohiblik kabi g'ayriislomiy guruhlarining odati sifatida qaralar edi.

Bu ayblovlar qarshisida sufiylar aksincha o'z qarashlarining aqida va amalga tayangan holda barcha masalalarda ahli sunna aqidasi va fiqhi bilan to'liq muvofiq ekanligini ta'kidlaganlar. Biroq sufiylar orasida yuqoridagi xususiyatlarga ega ko'plab kishilar mavjud edi. Shu sababli, mutasavviflar sufiylarni endi soxtalaridan tozalash kerakligini tushunib yettilar. Zero, bu fikr "Ta'arruf"ning yozilishiga ta'sir qilgan sabablardan biri bo'ldi. Bu borada Kalabodiy shunday degan:

"Nihoyat, ma'no tugadi, nom qoldi. Haqiqat yo'qoldi, shakl paydo bo'ldi. Natijada haqiqatni izlash bir bezak, uni tasdiqlash bir ziynatga aylandi. Tasavvufni tushunmaydiganlar sufiylik da'vosini qildi, sufiylik sifatiga ega bo'lmaganlar tasavvuf bilan bezanishga intildi. Tasavvufni qabul qilganliklarini tillari bilan iqror etganlar, xatti-harakatlari bilan bu yo'lni inkor etdi. Tasavvufni xalqqa tushuntirish vazifasida bo'lganlar, bu yo'lning asl mohiyatini yashirin tutdi, tasavvufdan bo'lmagan narsalarni bu yo'lga nisbat berdi. Shunday qilib, bu yo'lda haq bo'lganni botil qilib ko'rsatdi, haqiqatan tasavvufni bilganlarga johil nomini berdilar. Bu holat meni ushbu kitobda tasavvuf yo'lining sifatlarini aniqlashga, bu mazhabni tushuntirishga va sufiylarning yo'lini bayon qilishga undadi" [12:50-51].

Binobarin, Kalabodiy asarida, xususan, e'tiqodiy masalalar orqali sunniy tasavvufning chegaralarini chizish bilan yuqorida zikr etgan holatlarning oldini olishga harakat qilgan. Bu doirada zikr etilgan mavzular quyida batafsil bayon qilingan.

## **2. Ilk davr sufiylarining kalomiy qarashlari**

Kalabodiyning diqqatni jalb qiladigan darajada aqida va tasavvuf aloqasiga urg'u berganini ta'kidlagan edik. Zero, bu aloqa, boshidan boshlab, xususan, Allohning Razzoq ekanligiga bog'liq ravishda tavakkul va kasb yoki ru'yatulloh va mushohada kabi tasavvufdagi ba'zi muammolar ta'sirida rivojlangan. Bu doirada nasslarni talqin qilish huquqini o'zida ko'rgan kalom va fiqh ulamolari sufiylarni jiddiy qabul qilmasalar-da; sufiylar tasavvufni diniy zaminga joylashtirishda hadis, kalom va fiqhni hisobga oldilar. Zero, tasavvuf an'anasi ahli sunnaning e'tiqod asoslarini qabul qilib, o'zini cheklagan va kalomning vakolatini tan olgan.

Sog'lom tasavvuf tushunchasining – "Sog'lom bo'lishning mezoni Ahli sunna aqidasi va fiqh tushunchasi bilan muvofiqlikdir" [11:1-29] degan uyg'unlikni ko'rsatib bergan. Boshqacha aytganda, Payg'ambar (s.a.v.) davridan boshlab aqida va amal jihatidan tasavvuf an'anasida biron bir o'zgarish bo'lmaganini bildirgan. Bu holat, ayni paytda, Kalabodiyning tasavvufda tarixiy davrlashtirish masalasini qabul qilmaganini ko'rsatadi. Yanada ochiqroq aytadigan bo'lsak unga ko'ra, tasavvuf zuhd, tasavvuf kabi davrlarni bosib o'tmagan va doim bir holatda bo'lib, o'zgargan emas.

Abdurahmon Jomiy "Nafahotul uns" asarida qayd etishicha Kalabodiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy manbai Mansur Hallojning shogirdi va tarafdorlaridan bo'lgan Abu Qosim Fors ibn Iso Bag'dodiydir. U kishi Bag'doddan Xurosonga u yerdan Samarqandgacha borgan. Vafotiga qadar shu yerda qolgan. Moturidiyning zamondoshi edi [12:51].

Ta'arruf asarida Kalabodiy dastavval sufiy kimligini, haqiqiy sufiylarning xususiyatlarini ko'rsatib berishga uringan. Islom aqidasiidagi butun mavzularni sufiylar nazdidagi ahamiyatini ochib bergan. Shu usulda sufiylar va ahli sunna aqidasi o'rtasida bahsga o'rin yo'qligi, balki ular o'zaro mutanosib ekanini isbotlagan. Masalan, davrining eng muhim tortishuvlaridan biri "tavhid va Allohning sifatleri" kabi xususda sufiylarning qarashlarini ifoda etishga diqqat qaratgan. Bu borada fikrlarini ilgari surishda oyat, hadis, sahobalar so'zi va ilk sufiylarning qarashlarini dalil qilib keltirishga ahamiyat bergan. Bu asari bilan tasavvufning deyarli barcha mavzularini tilga olishi natijasida ham aqida ham tasavvuf manbalari orasida muhim o'rin oldi.

Kalabodiy Buxoroda ilmiy saviya yuksak darajada bo'lgan bir davrda yashab, ilm talabida ko'plab mamlakatlarga ilmiy safarlarda ham bo'ldi. Olim faqat diniy bilim olish bilan cheklanmay, aqliy ilmlarda ham o'zini rivojlantirdi. Matematika bilan shug'ullanib, hisob bilan bog'liq ko'plab ilmga ega bo'ldi. Muhammad ibn Musoning "Kitob al-Jabr" nomli asaridan ham istifoda etgan.

Hanafiy fiqh olimlarining eng muhim xususiyati mantiqning barcha jihatlariga rioyat qilgan holda aqliy qiyos va istidloldan unumli foydalanish va rayga e'tibor qaratishdir. Bir hanafiy olimi bo'lgan Kalabodiyning tasavvufiy qarashlarida aql va his, lafz va ma'no, zohir va botinga teng ahamiyat qaratilgan. Uning tasavvufiy qarashi bir so'z bilan aytganda aqliy va naqliy tasavvufdir.

Ta'arruf bilan bir davrda yozilgan ilk klassik manba hisoblangan "Qutul qulub" va "Luma" mualliflari zamondosh bo'lganlari uchun tabiiyki Kalabodiydan iqtibos keltirmaganlar. Ammo keyingi asrlarda tasavvuf sohasida asar yaratgan mualliflardan Qushayriy (vaf. 465/1073) va Hujviriy (vaf. 470/1077) o'z asarlarida Kalabodiydan uning nomini tilga olmasdan foydalanganini ko'rish mumkin. Shuningdek, G'azzoliy (vaf. 505/1111) ham «Ihyo» asarida «Ta'arruf»dan ta'sirlangan, degan fikrni aytish mumkin. «Avoriful-maorif» asarining muallifi Suhravardiy (vaf. 632/1234)ning Kalabodiydan ta'sirlangani esa shubhasizdir. Chunki "Agar "Ta'arruf" bo'lmaganida, tasavvuf ham bilinmas edi", degan mashhur ibora u kishiga tegishlidir [12:50-51].

Ta'arrufdagi o'n yetti maqomdan o'n beshtasi, istilohlardan yana o'n beshtasi jami o'ttizta istiloh Kalabodiydan keyingi asrlarda yashagan Hiraviy tarafidan o'z asarida zikr etilgan. Bu holat Hiraviyning muallifdan qanchalar ko'p ta'sirlanganini ko'rsatadi.

Kalabodiyning tasavvuf ta'limotiga bo'lgan ta'siri ayniqsa naqshbandiya silsilasining yirik namoyandasi bo'lgan Muhammad Porso (v. 822/1419)ning "Faslul-xitob" asarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Muhammad Porsoning *mazkur* asari esa, tasavvuf tajribasini naqshbandiya an'analari asosida kalomiy va falsafiy jihatdan asoslashga urinishi hisoblanadi.

Asarning muqaddimasida haqiqiy va sof sufiylar madh etiladi, riyokor va shaklechi tasavvuf vakillari tanqid qilinadi. Shuning ortidan muallif asarni yozish maqsadini bayon etadi. "Ta'arruf" asarining yozilish sababi tushuntirilgan va tasavvuf hamda sufiylar haqida fikr-mulohazalar bildirilgan muqaddimadan tashqari asar 75 bobdan iborat.

Asarning birinchi bobida "sufiy" atamasining ishlatilish sababi tushuntiriladi va sufiylarga berilgan boshqa nomlar haqida ham so'z yuritiladi. Bu qisqa bo'limda diqqatga sazovor va qimmatli ma'lumotlar beriladi.

Ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi boblarda esa uch guruhga bo'lingan sufiylarning faqat ismlari tilga olinadi. Bu taqsimot berilar ekan, xronologik tartibga qat'iy rioya qilingan. Shu bilan birga, malomatiya yo'nalishining asoschisi Hamdun Qassor va Shaqiq Balxiy kabi mashhur sufiylar ismlarining tilga olinmagani diqqatni tortadigan holatdir. Shuningdek, bu ro'yxatga Mansur Halloj (v. 309/921)ning kiritilmagani ham e'tiborlidir. Garchi unga ishora qilingan fikrlar mavjud bo'lsada, ochiq ifoda qilinmagan.

Bu holat tasavvufda o'z-o'zini tanqid qilish madaniyati ilk asrlardanoq mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Muallif, o'zi to'g'ri va haq deb bilgan ba'zi holatlar va ularni namoyon etgan sufiylarning hayotini keng xalq ommasi noto'g'ri tushunish xavfi mavjudligi sababli, ularni asarida tilga olmagan.

Tasavvuf ilmini o'z asar va risolalari orqali tarqatgan sufiylar ro'yxatini keltiradi. Ushbu zotlar orasida tasavvuf tarixi va ta'limotining yirik namoyandalari bo'lgan quyidagi kishilar tilga olinadi:

Junayd Bag'dodiy, Abu Husayn an-Nuriy, Abu Said Harroz, Ruvaym ibn Muhammad, Abu Abbos Ahmad ibn Ato Bag'dodiy, Amr ibn Usmon Makkiy, Yusuf ibn Hamdon Susiy, Muhammad ibn Ayyub Nahrjuriy, Abu Muhammad Jaririy, Muhammad ibn Ali Kattoniy, Ibrohim Havvos, Abu Ali Avrojiy, Abu Bakr Vositiy, Abu Abdulloh Hoshimiy, Abu Abdulloh Haykal Qurashiy, Abu Ali Ruzbariy, Abu Bakr Qahtiy va Abu Bakr Shibli kabi buyuk mutasavviflar bor.

Bu ro'yxatdan ko'rinadiki, Kalabodiyning maqsadi – tasavvuf ilmidan xabar beruvchi, uni kitob va risolalar orqali tizimli ravishda yetkazgan ilk sufiylarni yodga olishdir. Shu tarzda u tasavvufni faqat shaxsiy tajriba emas, balki ilmiy va ma'naviy maktab sifatida ham ko'rsatgan.

Kalabodiyga ko'ra ilmlar tasnifi quyidagichadir:

1. Ilmu dirosa. Bu ilmga ilmu iqtibos ham deydilar va tavhid ilmini mustahkamlagandan so'ng qo'lga kiritiladigan ahkom ilmidir.

2. Ilmu virosa. Nafsning ofat va hiylalari, amal ofatlari, dunyoning aldamchiligini bilishdir.

Sufiylar kashfni quvva holatida bo'lgan bilimning ochilishi va inson qalbida uxlab yotgan chuqur ongning uyg'onishi shaklida talqin qilganlar. Abu Husayn Nuriy (vaf. 295/907) qarash bilan kashfning farqli ekanini ta'kidlash uchun shunday deydi: "Ko'z bilan ko'rinadigan narsalarning kashfi qarash bilandir, qalblarning kashfi esa ittisol bilandir". Kalabodiyga ko'ra esa, mukoshafa ruhning sirini kashf etish demakdir.

Kalabodiy tavhid, fiqh, hikmat va ma'rifat ilmlaridan so'ng "xavotir ilmlari" va "mushohada va mukoshafa ilmlari" kelishini aytgan. Mukoshafa ilmiga "ishorat ilmi" yoki "ma'rifat ilmi" deb ham aytiladi. Qalb mushohadasi va ruh kashfini haqiqiy ma'noda so'z bilan ifoda etish mumkin bo'lmagani uchun bu ilm "ishorat ilmi" deb nomlangan. Muhokama qilinayotgan masalalar visol va vajd holatlari orqali bilinadi, tasavvufiy holatlarni boshdan kechirgan va ushbu ilmga oid maqomlarga erishganlardan boshqa hech kim buni bilmaydi. Ya'ni, vajd bir hol bo'lgani uchun uni o'qib emas, faqat yashabgina bilish mumkin.

Kalabodiy aytishicha, ruhda ilohiy mohiyatni izlagan sufiylarning barchasi "Ruh – badanga hayot baxsh etuvchi ma'nodir" degan fikrda yakdil bo'lganlar. Ruh orqali inson yer yuzida Allohning xalifasi bo'lishga loyqlik kasb etgan. Ruhning ilohiy bir jihati mavjudligi bois badan yeb ichishdan ruh esa Allohni eslashdan ozuqa oladi.

Kalabodiy nafsni barcha a'zolar uchun omonat deb biladi va nafsini shahvatdan yiroq tutgan inson taqvodor ekanini, taqvodorni esa Alloh rizqlantirishini ta'kidlaydi. Kalabodiyga ko'ra, ruh – bir qavmdir, nafs esa yagona bir narsadir. Ruh sovuq shamoldir, nafs esa issiq shamoldir. Ruh badanga puflanganda u sovuq bo'ladi, unga nafs kiritilganda esa issiq bo'ladi.

Nafsni turli hayvonlarga o'xshatib tasvirlash kabi qarashlarning Kalabodiyda uchramasligi, uning qarashlari shakllanishida falsafiy g'oyalarning ta'siri bo'lmaganini ko'rsatadi, degan fikrdamiz. Ilk sufiylarda va Kalabodiyda nafsning kamolga yetishi va takomili haqida aniq bir qarashga duch kelinmaydi. U nafsni salbiy, ruhni esa ijobiy unsur sifatida anglaydi.

K. Rahimovning qayd etishicha "Ta'arruf" asarining ko'plab qo'lyozma nusxalari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bloshet va Brokkelman tomonidan tuzilgan kataloglarda Kalabodiy asarining Turkiya, Hindiston, Eron va Misr kabi mamlakatlar qo'lyozma xazinalarida saqlanayotgan 15 ta qo'lyozma nusxasi mavjudligi to'g'risida ma'lumot berilgan bo'lsa, Fuat Sezgin bularga qo'shimcha ravishda "Ta'arruf"ning Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan 9 ta hamda Hindiston, Jazoyir, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSH kitob xazinalarida mavjud bo'lgan 5 ta – jami bo'lib yana 14 ta qo'lyozma nusxa nashr etilgani haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, 1986-yili Moskvada nashr etilgan "Sharqshunoslik instituti arabcha qo'lyozmalari" katalogiga Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharq qo'lyozmalari instituti fondida ham "Ta'arruf" asarining V2943 raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi mavjudligi qayd qilingan [16:76-77].

O'zbekistonda ham "Ta'arruf"ning qo'lyozma nusxalaridan biri mavjud. Asarning O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida 3154/V raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi qadimiy nusxalardan bo'lib, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharq qo'lyozmalari to'plamining 1955-yili bosilib chiqqan 3-jildida keltirilgan tavsifda uning 633/1235-yili Buxoroda noma'lum kotib tomonidan ko'chirilganligi qayd etilgan [17:142].

Kalabodiyning "Ta'arruf" kitobi birinchi marta Abu Homid Muhammad G'azzoliyning 1903-yili Istanbulda nashr qilingan "Ihyo ulum ad-din" kitobining hoshiyasida mazkur kitob bilan birga chop etilgan [4:217].

O'zbekistonda birinchi marotaba 2002-yilda "Tasavvuf sarchashmasi" nomi bilan o'zbek tiliga tarjima qilingan [20:142]. Oradan 20-yil o'tib, 2022-yil kitobning arab tilidan yana bir tarjimasini nashr qilindi [3:324 b]. Birinchi tarjimadan ancha farqli ravishda sharhlar va matnning arabiyisi ham kitobda aks etgani diqqatga sazovor. Bundan tashqari birinchi tarjimada aks etmagan boblar ham to'liq tarjima qilinib, kitobxonlar e'tiboriga taqdim qilingan.

**Xulosa.** Kalabodiyning tasavvufiy jihati haqida bugunga qadar jiddiy va qamrovli biror ilmiy tadqiqot olib borilmagan. Biroq hadis sohasida, uning hadisga oid asari ustida turli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Abu Bakr Kalabodiy klassik tasavvuf davrining muhim shaxslaridan bo‘lib, tasavvuf ilmi tizimining asoschisi hamdir. Kalabodiy tasavvufni oddiy zuhd harakatidan tizimlashgan holga kelishida muhim o‘rin egallagan olim. Mutasavvif tasavvufning asosiy atamalarini shakllantirishga ham katta xizmat qilgan. “Ta’arruf li mazhabi ahli tasavvuf” asari tasavvuf vakillari va aqida ulamolari munosabatini o‘zaro iliqlashishiga va ijobiylashuviga ta’sir qilgan bebaho asar. Bu kitob vositasida olim sahif tasavvuf ahli sunna fiqhi va aqidasiiga muvofiq ekanini asoslab berdi.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдулкарим Қушайри. Рисолаи қушайрия. – Қоҳира: – Б. 4.
2. Ali b. Osman b. Эбу Али Қüllâbî Hücvirî, Кеşfu’l-Mahcub, thk. İs’ad Abdulhadi Kandil (Mısır: Mektebetu’l İskenderiyye, 1974), 1/191-239; Ahmet Ateş, “Kastamonu Genel Kitaplığında Bulunan Bazı Mühim Arapça ve Farsça Yazmalar”, Leiden: Oriens Milletlerarası Şark Tetkikleri Cemiyeti Mecmuası V/1 (1952), 28-46
3. Ат-Таъарруф ли мазҳаби аҳлит-тасаввуф (тасаввуф аҳлининг йўли билан танишув). [Матн] / масъул муҳаррир Ж.Раупов. –Тошкент: “Azmir nashr print” -2022. -324 б
4. Brockelmann C. Geschichte der arabischen Literatur. Erster Supplementband. – S. 217.
5. Demirli, “Tasavvuf Araştırmalarında Dönemlendirme Sorunu”, Nazariyat: İslâm Felsefe ve Bilim Tarihi Araştırmaları Dergisi, Cilt II, Sayı 4, Nisan 2016, - s. 1-29.
6. Ebû Abdullâh Muhammed b. Alî b. Hasen Tirmizî, Hatmü’l-Evliya, thk. Osman İsmail Yahya (Beyrut: Mecelletü’l Meşrik, 1965), 336-346 ve 380-391.
7. Ebu Said Harrâz, Risaleler, çev. Naile Baltacı (İstanbul: Litera Yayıncılık, 2019), 66-71.
8. Ebü’l-Hasen Alî b. Osmân b. Ebî Alî el-Cüllâbî Hücvirî, Кеşfu’l Mahcûb (Hakikat Bilgisi), çev. Süleyman Uludağ (İstanbul: Dergah Yayınları, 2014), 71-82.
9. Ebû Tâlib el-Mekkî, Kûtu’l- Kulûb (Kalplerin Azığı), çev. Dilaver Selvi (İstanbul: Semerkand Yayıncılık, 2011), 1/453-505, 3/521-587, 4/13-37.
10. Ebû İshâk İbrâhîm b. Ya’kûb el-Buhârî Kelâbâzî, Doğuş Devrinde Tasavvuf (Ta’arruf), çev. Süleyman Uludağ (İstanbul: Dergah Yayınları, 2021), 51
11. Ekrem Demirli, “Tasavvuf Araştırmalarında Dönemlendirme Sorunu: Din Bilimleri ile Metafizik Arasında Tasavvufun İlim Olma.
12. Kelâbâzî, et-Ta’arruf, 7; Kelâbâzî, Doğuş Devrinde Tasavvuf, 50-51.
13. Mücahit Akbal-Hasan Kamil Yılmaz. Sûfîlerin İtikâdî Konulara Yaklaşımı: Kelâbâzî ve Sühreverdi Örneği. – İstanbul. 2023. Tasavvuf İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi. 26/51. – S. 7.
14. Ekrem Demirli, “Tasavvuf Araştırmalarında Dönemlendirme Sorunu: Din Bilimleri ile Metafizik Arasında Tasavvufun İlim OlmMücadelesi” (Erişim 13 Şubat 2024) <https://nazariyat.org/sayilar/4/m0030>.
15. О.Акимушкин // Ислам: Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991. – С. 128
16. Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуф тарихи таълимотининг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). – Тошкент: Академнашр, 2020. – Б. 76-77.
17. Собрание восточных рукописей Академии наук / Под редакцией А. А. Семенова. Том III. – Ташкент: Издательство Академии наук, 1955. – С. 142
18. TDV İslâm Ansiklopedisi. Kelâbâzî, Muhammed bin İbrâhîm. – Ankara: 25 с. – S. 192-193.
19. Vahit Göktaş. Kelabazi ve tasavvufî görüşleri. Ekev Akademi Dercisi. Yıl: 12 Sayı: 36. 2008. – S. 90.
20. Шайх ал-Колободий. Тасаввуф сарчашмаси. // тарж: Отакул Мавлонкул ўғли ва Мавлуда Отакул қизи –Тошкент: Ғофур Ғуллом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. -142 б.

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

**AL-9224104729 “JADIDCHILIK TA’LIMOTI MILLIY STRATEGIK G‘OYALARINI OMMALASHTIRISHNING KONSTRUKTIV TRANSDITSIPLINAR MODELINI YARATISH” AMALIY LOYIHASI ASOSIDA TAYYORLANDI.**

**ПОДГОТОВЛЕНО В РАМКАХ ПРИКЛАДНОГО ПРОЕКТА AL-9224104729 “СОЗДАНИЕ КОНСТРУКТИВНОЙ ТРАНСДИСЦИПЛИНАРНОЙ МОДЕЛИ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА”.**

**PREPARED BASED ON THE APPLIED PROJECT AL-9224104729: “CREATING A CONSTRUCTIVE TRANSDISCIPLINARY MODEL FOR POPULARIZING THE NATIONAL STRATEGIC IDEAS OF JADIDISM”.**

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000